

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



**TA’LIM TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA TILLARNI
O‘QITISHNING MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI**

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami

2024-yil 17-may

**Сборник материалов международной научно-практической
конференции**

**ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ЯЗЫКОВ
В УСЛОВИЯХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ**

17 мая 2024 года

Collection of materials of the international scientific and practical conference

**PROBLEMS AND PROSPECTS OF LANGUAGE TEACHING IN THE
CONTEXT OF EDUCATIONAL TRANSFORMATION**

May 17, 2024

Guliston – 2024

millatchilikni targ'ib etish va har turli meto'dlar bilan sovet adabiyotiga zarar berish yo'llarini qo'llab keladilar. "Kecha va kunduz" asari shu targ'ib usullaridan biridir.

Adabiyotlar

1. <https://hozir.org/nom-qoyish-sanati.html?page>
2. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Mingboshi>
3. <https://shosh.uz>
4. <https://qomus.info>
5. ↑ <https://fayllar.org/ozbekiston-milliy-ensiklopediyasi-v2.html?page=10>
6. ↑ [http://ferlibrary.uz/f/kecha va kunduz.pdf](http://ferlibrary.uz/f/kecha%20va%20kunduz.pdf)

ABDULLA QAHHORNING TARIXIY HIKOYALARDAGI TARIXIY SO'ZLAR RO'YXATI

Eshmamatova Umida Zuhridin qizi, talaba, Chirchiq davlat pedagogika universiteti

umidaeshmamatova19@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning hikoyalariga va ularda uchraydigan ayrim tarixiy so'zlarga to'xtalib o'tamiz. Abdulla Qahhorning bolalik yillari eng qiyin zamonlarga 1917-yil voqealari, Birinchi jahon urushi, mardikor olish voqealari, ocharchilik, ishsizlik, xullas, jamiyatda u tuzumdan bu tuzumga o'tish davriga to'g'ri keldi. Abdulla Qahhor bolaligida ko'rgan-kechirganlari asosida nodir asarlar yaratdi. Jumladan, "Boshsiz odam", "Tomoshabog'", "Anor", "O'g'ri", "Bemor", "Dahshat", "Qabrdan tovush" kabi original hikoyalar yozdi. Abdulla Qahhor "Xotinlar", "Asror bobo", "Ming bir jon", "Mahalla" hikoyalarida zamondoshlarining ma'naviy dunyosini, insoniy xislatlarini, axloqiy pokligini, ruhiy go'zalligini ko'rsatishga alohida e'tibor bergan. "O'g'ri" hikoyasida "Otning o'limi itning bayrami" maqoli epigraf qilib olingan. "Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin. Bir qop somon, o'n-o'n beshta xoda, bir arava qamish uy, ho'kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo'yish kerak bo'ladi" – kabi misralar shu hikoyadan olingan. "O'g'ri" hikoyasida "Begim deguncha belim sinadi", "Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi", "Berganga bitta ham ko'p, olganga o'nta ham oz", "Kuruq qoshiq og'iz yirtadi", "O'ynashmagil arbob bilan – seni urar har bob bilan" kabi maqollar qo'llangan. "Bemor" hikoyasida vafot etgan ayol taqdir qo'li kalta Sotiboldining ahvoli, uyquga to'ymagan, hali aniq shakl olmagan jujuq tilda onaizoriga tuni bilan xudodan shifo tilab chiquvchi "begunoh go'dak" – qizcha holati bayon etilgan. Bu hikoyaga "Osmon yiroq, yer qattiq" maqoli epigraf qilib olingan. Adabiy ta'lim jarayoni Abdulla Qahhor asarlari bilan mazmunga boy, ma'rifatga to'la bo'lgan.

Kalit so'zlar: o'g'ri, ellikboshi, pristav, amin, baxshi, arbob, dodxoh kabilar.

Abdulla Qahhorning bolaligida unga va uning oila a'zolariga nisbatan bildirilgan mana shunday sovuq munosabatlar bo'lg'uvsi adibning kamgap, vazmin, indamas bo'lib qolishiga sababchi emasmikan, deb o'ylaymiz. Abdulla Qahhorning bolalik yillari eng qiyin zamonlarga 1917-yil voqealari, Birinchi jahon

urushi, mardikor olish voqealari, ocharchilik, ishsizlik, xullas, jamiyatda u tuzumdan bu tuzumga o'tish davriga to'g'ri keldi. Abdulla Qahhor bolaligida ko'rgan-kechirganlari asosida nodir asarlar yaratdi. Jumladan, "Boshsiz odam", "Tomoshabog'", "Anor", "O'g'ri", "Bemor", "Dahshat", "Qabrdan tovush" kabi original hikoyalar yozdi. Ularning real, tarixiy zaminini, obrazlarning prototiplari "O'tmishdan ertaklar" qissasida qalamga olinganini anglash mumkin. Demak, fojiviy hayotiy lavhalar tasvirining asosi aslida yozuvchi yashagan, bolaligi kechgan makon va zamon, ijtimoiy-maishiy turmush bilan chambarchas bog'liq. To'g'ri, yozuvchi badiiy shartlilik talabiga muvofiq biroz oshirib yuborgan yoki biroz kamaytirib tasvirlagan bo'lishi mumkin. Nima bo'lganda ham, yozuvchi badiiylik mezonlaridan kelib chiqib, shaxsan o'zi ko'rgankuzatgan voqealar va kishilar taqdiri, muammolarini professional yozuvchilik qalami bilan tarixga muhrladi. Adib hikoyalarini shartli ravishda uch yo'nalishga ajratish mumkin: tarixiy hikoyalar, hajviy hikoyalar, zamonaviy hikoyalar. Abdulla Qahhor "Xotinlar", «Asror bobo», «Ming bir jon», «Mahalla» hikoyalarida zamondoshlarining ma'naviy dunyosini, insoniy xislatlarini, axloqiy pokligini, ruhiy go'zalligini ko'rsatishga alohida e'tibor bergan. U hikoyalarida xalq maqollari va matallaridan o'rinli foydalangan.

"O'g'ri" hikoyasida o'zgalar baxtsizligini tirikchilik manbaiga aylantirib olgan amaldorlar obrazi berilgan. Unga «Otning o'limi itning bayrami» maqoli epigraf qilib olingan. «Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin. Bir qop somon, o'n-o'n beshta xoda, bir arava qamish uy, ho'kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo'yish kerak bo'ladi» - kabi misralar shu hikoyadan olingan. "O'g'ri" hikoyasida "Begim deguncha belim sinadi", "Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi", "Berganga bitta ham ko'p, olganga o'nta ham oz", "Kuruq qoshiq og'iz yirtadi", "O'ynashmagil arbob bilan – seni urar har bob bilan" kabi maqollar qo'llangan.

"Bemor" hikoyasida qattiq og'rib, vafot etgan ayol taqdiri va unga biror yordam berishdan batamom ojiz, qo'li kalta Sotiboldining ahvoli, uyquga to'ymagan, hali aniq shakl olmagan jujuq tilda onaizoriga tuni bilan xudodan shifo tilab chiquvchi "begunoh go'dak" - qizcha holati bayon etilgan. Ona esa har qanday vaziyatda ham o'z bolasini o'ylaydi. Bu hikoyaga "Osmon yiroq, yer qattiq" maqoli epigraf qilib olingan.

"Dahshat" hikoyasida Unsinning "O'g'ri" dagi Qobil bobo, "Anor" dagi Turobjon, "Bemor" dagi Sotiboldidan farqi shuki, u o'z salaflariga o'xshab mute'lik asirasi va jaholat qurboni bo'lib yashashni istamaydi. Olimbek dodxoning sakkiz xotini ichida eng kichigi - bu dargohga tushganiga besh oygina bo'lgan kelinchak - Unsin agar eri butunlay javobini bersa, Ganjiravonga - o'z uyiga ketmoqchi bo'ladi. Dodxoning katta xotini Nodirmohbegim bir voqeani aytib berayotganda "Bola" edim. Raxmatli dadam gap yer edilar. Bir mexmonxona yigit... Mana shunaqa shamol kechasi ekan. "Xozir kim go'ristonga borib, Asqarponsotning go'riga pichoq sanchib keladi?" - degan gap bo'libdi" – deydi. Unsin Dodxo bergan topshiriqni bajaraman deb borganda o'tinni unutadi va hikoya so'ngida qo'rqinchdan jon beradi.

“Ming bir jon” hikoyasi 1956 yilda yozilgan. Asar qahramonlari quyidagilar: jikkakina kishi, o‘ziga juda ham katta ko‘k xalatga burkanib olgan, «bu xotinning joni bitta emas, ming bitta» degan Mirrahimov, sakkiz oydan beri palatadan chiqmay yotgan, o‘n yildan beri xasta ayol Mastura Alieva, Masturaning eri Akromjon, Hoji aka.

“Asror bobo” hikoyasida Usta Mo‘min kitob ko‘rib, Asrorqulning o‘g‘liga qochoq bo‘lib yurgan kunlardan yodgor bo‘lsin deb, “Yodgor” ismini qo‘yadi. Hikoyada ”Soxta tabassum” birikmasi salbiy emas, balki qahramonning matonati, irodasi, bardoshi belgisi bo‘lib yuzaga chiqqan. Hikoya qahramoni Asror bobo Nikolay davrida tegirmonchi bo‘lgan.

“Mayiz yemagan xotin” hikoyasida yozuvchi yangi zamondagi o‘zgarishlarni ko‘rolmaydigan, paranjini tashlagan qizaloqdan tortib har bir keksa ayolgacha – barchaga gumonsirab qaraydigan, ular haqida kurakda turmaydigan g‘iybat gaplarni tarqatishdan or qilmaydigan mulla Norqo‘zining hajviy qiyofasini yaratgan.

Abdulla Qahhor hikoyalarda hayotdagi va inson tabiatidagi turli-tuman nuqsonlarni tanqid etgan. Odamzod mavjud ekan, bahillik, johillik, ochko‘zlik, maqtanchoqlik, hudbinlik va boshqa qusurlar, albatta, yashaydi. Bu qusurlar kimdadir kamroq bo‘lishi mumkin, lekin bu illatlar insonning qadr-qimmatini pastga uradi, chinakamiga barkamol bo‘lishiga halaqit beradi. Jahon adabiyoti namunalarida bunday masalalar doimo dolzarb bo‘lgan. Abdulla Qahhor hikoyalarda hayotdagi va inson tabiatidagi turli-tuman nuqsonlarni tanqid etgan. Odamzod mavjud ekan, bahillik, johillik, ochko‘zlik, maqtanchoqlik, hudbinlik va boshqa qusurlar, albatta, yashaydi. Bu qusurlar kimdadir kamroq bo‘lishi mumkin, lekin bu illatlar insonning qadr-qimmatini pastga uradi, chinakamiga barkamol bo‘lishiga halaqit beradi. Jahon adabiyoti namunalarida bunday masalalar doimo dolzarb bo‘lgan.

Abdulla Qahhor o‘zbek adabiyotida o‘z uslubiga, o‘z ovozigaga ega bo‘lgan, adabiyotimiz taraqqiysiga sezilarli ijobiy hissa qo‘shgan zabardast adiblarimizdan biridir. Uning yorqin ijodi katta mahorat maktabi sifatida hamisha ijodkorlarning diqqat markazida bo‘lgan. Uning asarlariga qayta-qayta murojaat qilmagan, uning uslubiy mahoratidan bahra olmagan, uni o‘ziga ustoz deb sanamagan ijodkorlarni topish yaqin-yaqingacha aslo mumkin emas edi; adabiy ta’lim jarayoni Abdulla Qahhor asarlari bilan mazmunga boy, ma’rifatga to‘la bo‘lgan.

Adabiyotimizning yirik vakili, o‘zbek professional prozasining oyoqqa turishida tinimsiz mehnat qilgan yozuvchi Abdulla Qahhor ijodi necha o‘n yillardan buyon xalqimizning ongu shuurini band etib kelmoqda. Adibning badiiy mukammal hikoyalari, qaytarilmas xarakterlar talqini joy olgan qissa, roman va pesalari, aforizm darajasidagi tesha tegmagan fikrlari hali uzoq yillar ko‘p avlodlar uchun mulohaza ob’ekti bo‘lib qolishi shubhasizdir.

Adabiyotlar

1. Abdulla Qahhorning "Hikoyalar to‘plami"
2. ziyo.uz.com
3. Mingboyev Ibrohim va Sh. T. Mahkamovalar maqolasi